

## KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING ART-DIZAYNGA OID BILIMLARINI RIVOJLANTRISH

**Doniyorova Shahnoza Erkinovna**

A.Qodiriy nomli Jizzax davlat pedagogika universiteti Texnologik ta'lim va tasviriy san'at fanlari kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7227920>

**Annotatsiya.** Bo'lajak o'qituvchining kasbiy xatti-harakati, faoliyatida kreativlik mavjudligini bir qator holatlar namoyon etadi. Bo'lajak dizayner-pedagoglar muammolarni yangicha yondashuv asosida, nostandart shaklda yechishga harakat qiladilar. Kreativlik o'ziga xos qobiliyat tarzidagi ko'rinishlarga ham ega bo'ladilar. Kreativlik bir qator omillar bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi yoki yashirin ko'rinish kasb etishi ham mumkin. Ta'lim oluvchilarda kreativlikning namoyon bo'lishida o'quv jarayoni, unda qo'llaniladigan metod va texnologiyalar muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak dizayner-pedagoglar turli yangi g'oyalar va integratsiyalashgan bilimlarga asoslangan holda kasbiy faoliyat tajribasini egallashlari lozim. Professor-o'qituvchilar muayyan ijodiy vaziyatlarni yaratish orqali bo'lajak dizayner-pedagoglarda kasbiy faoliyat ko'nikmalarini hosil qiladilar. Bo'lajak o'qituvchilar an'anaviy tafakkur tarzidan voz kechib yangi g'oyalarni ilgari surish layoqatini egallaydilar. Bo'lajak o'qituvchilarning kreativlik imkoniyatiga egaliklari ularni bilish faolligiga undaydi. O'z-o'zini ijodiy jihatdan namoyon etish muayyan bilimlar doirasida amalga oshadi.

**Kalit so'zlar:** kreativlik, art-dizayn, dizayner-pedagog, integrativ, dizayner, ob'ekt, an'anaviy, milliy, strategiya, integratsiya, nostandart, kreativ yondashuv, verbal.

## РАЗВИТИЕ ЗНАНИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ОБ ХУДОЖЕСТВЕННОМ ДИЗАЙНЕ НА ОСНОВЕ ТВОРЧЕСКОГО ПОДХОДА

**Аннотация.** Ряд случаев свидетельствует о наличии творчества в профессиональном поведении и деятельности будущего педагога. Будущие дизайнеры-педагоги будут пытаться решать задачи на основе нового подхода, в нестандартной форме. Творчество также принимает форму уникальной способности. Креативность может проявляться или скрываться в зависимости от ряда факторов. Учебный процесс, используемые в нем методы и технологии имеют важное значение в проявлении творческих способностей учащихся. Будущие дизайнеры-педагоги должны приобретать профессиональный опыт, основанный на различных новых идеях и комплексных знаниях. Создавая определенные творческие ситуации, профессора-педагоги формируют у будущих дизайнеров-педагогов навыки профессиональной деятельности. Будущие педагоги приобретают способность выдвигать новые идеи, отказываясь от традиционного образа мышления. Способность будущих учителей к творчеству побуждает их быть активными в обучении. Творческое самовыражение происходит в рамках определенных знаний.

**Ключевые слова:** творчество, арт-дизайн, дизайнер-педагог, интегративный, дизайнерский, предметный, традиционный, национальный, стратегия, интеграционный, нестандартный, творческий подход, вербальный.

## DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS' KNOWLEDGE OF ART DESIGN BASED ON A CREATIVE APPROACH

**Abstract.** A number of cases show the presence of creativity in the professional behavior and activity of the future teacher. Future designer-pedagogues will try to solve problems based

*on a new approach, in a non-standard form. Creativity also takes the form of a unique ability. Creativity can be manifested or hidden in relation to a number of factors. The educational process, the methods and technologies used in it are important in the manifestation of creativity in students. Future designer-pedagogues should gain professional experience based on various new ideas and integrated knowledge. By creating certain creative situations, professors-teachers develop professional activity skills in future designer-pedagogues. Future teachers acquire the ability to put forward new ideas, abandoning the traditional way of thinking. Future teachers' ability to be creative encourages them to be active in learning. Creative self-expression takes place within the framework of certain knowledge.*

**Keywords:** *creativity, art design, designer-pedagogue, integrative, designer, object, traditional, national, strategy, integration, non-standard, creative approach, verbal.*

## KIRISH

Bo'lajak o'qituvchilarda dizayn sohasidagi kreativlik ularning ijodiy faoliyatlari natijasi orqali baholanadi. Dizaynerning faoliyat natijalari verballigi, moslashuvchan obrazli xarakterga egaligi va betakrorligida namoyon bo'ladi. Dizaynerlik faoliyati natijalarining moslashuvchanligi strategiyalar, g'oyalar, qarashlarning rang-barangligida namoyon bo'ladi. Bo'lajak dizayner-pedagogning yo'nalishlar orasidagi mantiqiy aloqadorlikni anglashi muhim ahamiyatga ega. Dizayner-pedagog faoliyatidagi betakrorlik yangi g'oyalarni ilgari sura olishida o'z ifodasini topadi.

Pedagogika entsiklopediyasida **KREATIVLIK** (ijodiylik) (lot. creation – yaratuvchanlik, ijodkorlik) – 1) qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, badiiy shakl yaratish, fikrlash, g'oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayon. 2) shaxsning yangi g'oyalarni yaratish va qabul qilishga tayyorligini tavsiflovchi ijodiy qobiliyati ekanligi ko'rsatilgan.<sup>2</sup>

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy xatti-harakati, faoliyatida kreativlik mavjudligini bir qator holatlar namoyon etadi. Bo'lajak dizayner-pedagoglar muammolarni yangicha yondashuv asosida, nostandart shaklda yechishga harakat qiladilar. Kreativlik o'ziga xos qobiliyat tarzidagi ko'rinishlarga ham ega bo'ladilar. Kreativlik bir qator omillar bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi yoki yashirin ko'rinish kasb etishi ham mumkin. Ta'lim oluvchilarda kreativlikning namoyon bo'lishida o'quv jarayoni, unda qo'llaniladigan metod va texnologiyalar muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarda dizaynerlikka nisbatan qiziqishni shakllantirish o'qituvchining kasbiy kompetensiyalariga bevosita bog'liq. Bo'lajak dizayner-pedagoglar turli yangi g'oyalar va integratsiyalashgan bilimlarga asoslangan holda kasbiy faoliyat tajribasini egallashlari lozim. Professor-o'qituvchilar muayyan ijodiy vaziyatlarni yaratish orqali bo'lajak dizayner-pedagoglarda kasbiy faoliyat ko'nikmalarini hosil qiladilar. Bo'lajak o'qituvchilar an'anaviy tafakkur tarzidan voz kechib yangi g'oyalarni ilgari surish layoqatini egallaydilar. Bo'lajak o'qituvchilarning kreativlik imkoniyatiga egaliklari ularni bilish faolligiga undaydi.

## TADQIQOT METODI VA METODOLOGIYASI

Bo'lajak o'qituvchilarda ijodkorlik sohasida katta tajriba to'planishiga qaramasdan yangidan-yangi bilimlarni egallashga ehtiyoj sezadilar. Mazkur bilimlar bo'lajak o'qituvchilar ham amaliy ham muayyan natijalarga erishishlarini ta'minlaydi. Dizaynerlikka oid aniq bilimlar zahirasi darsliklar va o'quv adabiyotlarda to'laligicha o'z ifodasini topmagan. Qolaversa bo'lajak dizayner-pedagogning kreativligiga oid yagona yondashuv mavjud emas. Shuningdek

dizayner-pedagogning kreativligini baholovchi yagona metodikani ishlab chiqish ehtiyoji mavjud. Mazkur metodika bo'lajak o'qituvchilarning dizayn ijodkorligini baholash imkoniyatini berishi lozim.

K.Rodjers ta'kidlashicha kreativlik tushunchasi doirasida muammo yechishning yangi usullarini hamda kreativlikni ifodalashning yangi yo'llari tushuniladi. Shuningdek taniqli mutaxassis K.Teylor kreativlik muammosi bilan bog'liq bo'lgan to'rtta muhim yo'nalishni ajratgan. Ular:

- kreativ jarayonni amalga oshiruvchi ijodkor shaxs;
- ijodkorlikka nisbatan ehtiyojning shakllanishi;
- kreativ jarayon;
- kreativ faoliyat natijasi;

Turli ilmiy manbalarni tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, ijodkor shaxs bir qator sifatlar va layoqatlarga ega bo'ladi. Mazkur sifat va layoqatlar integrativ xarakterga ega. Bo'lajak o'qituvchilarda ijodkorlikning rivojlanishi barobarida shaxsiy sifatleri ham takomillashadi. Bunday sifatlar ijodkor shaxsning haqiqatlarni bilishi uchun muhim hisoblanadi. Mazkur sifatlar talabalarning hamkorlikdagi faoliyati mahsuli hisoblanadi. Bo'lajak dizayner-o'qituvchining kreativ kreativlik sifatleri quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- turli g'oyalarni ilgari surish;
- nozik kechinmalar, tuyg'ular va ranglarni his etish;
- muammolarga nisbatan sezgirlik bilan yondashish;
- atrof-muhitdagi voqelikni aniq baholash;

<sup>3</sup> Креативная педагогика: методология, теория, практика / под ред. Ю. Г. Круглова. М.: МГОПУ им. М. А. Шолохова: Альфа, 2002, 240 с.

- muayyan vaziyatlarda katta hajmdagi g'oyalarni ilgari surish va ularni amalga oshirishga intilish;

- qo'shimcha g'oyalar, tahminlarni taklif qilish;
- o'z qarashlarini yumor hissi bilan boyitish va farazlarini bayon qilish;
- kutilmagan, betakror, go'zal hatti-harakatlarni namoyon etish;
- dastlab yuzaga kelgan, ommaviy qabul qilingan fikrlarni bayon qilishdan

saqlanish;

- turli nostonlartg'oyalarni mustaqil tarzda ilgari surish;
- o'z qarorlarining to'g'riligiga ishonch bildirish;
- faoliyatida vujudga keladigan qiyinchiliklarga qaramasdan o'z g'oyalarini yuzaga

chiqarish;

- nostandart nuqtai nazarlar uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish;
- muammoning yechimiga olshib keladigan fikrlarni qo'llab-quvvatlash;
- o'z kuchiga ishonish va o'z kuchiga tayangan holda harakatlarining to'g'riligiga

ishonish;

- harakatlarining aniqligi va yetarliligin baholash kabilar.

## **TADQIQOT NATIJASI VA MUHOKAMA**

Ijodiy aloqalar buzilgan vaziyatlarda bo'lajak o'qituvchi o'z harakatlarini tuzatishga va kreativ yondashuvlardan foydalanishga muhtoj bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchilar nostandart topshiriqlarni yechishga moyilliklarini ko'rsata olishlari kerak. Bo'lajak dizayner-pedagoglar

tabiiy harakatlarni amalga oshirishga intiladilar. Ular har doim yangi, betakror narsalarni yaratishga harakat qiladilar. Bunday harakatlar kreativ harakatlar sifatida baholanadi. <sup>4</sup>

Shaxs tafakkuridagi ijodiy jarayonlar kreativlikni ifodalovchi to'rtta asosiy sifat ko'rsatgichlari orqali namoyon bo'ladi. Ular:

- obrazli moslashuvchan moyillik. Bu o'quvchi tomonidan idrok etilgan ob'ektning noma'lum tomonini ko'ra olishni anglatadi.

- tafakkurning betakrorligi. Bunda g'oyalar va obrazlarning noodatiy, o'ziga xosligi nazarda tutiladi.

- tafakkurning moslashuvchanligi. Bu ob'ektni turli tomon va turli nuqtai nazardan ko'ra olish, uning noma'lum jihatlarini kashf etishni anglatadi.

- tafakkurning mustaqilligi. Bunda nostandart vaziyatlarda turli vaziyatlarni ilgari surish nazarda tutiladi.

## XULOSA

Dizayner-pedagoglar turli ishlarni an'anaviy usullar yordamida milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda sifatli bajara olishi kerak. Shu bilan bir qatorda dizayner-pedagoglar mahoratli hunarmand sifatida o'zlarining ijodiy mahsulotlarini yaratishlari muhim ahamiyatga ega. Bunda ular iste'molchilarning talablari, didilari, dunyoqarashlari, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ijod na'munalarini yaratishlari talab etiladi.

Bo'lajak dizayner-pedagoglarni kasbiy-ijodiy faoliyatga tayyorlash ushbu jarayonda tizimli yondashuvni qo'llashni taqozo etadi. Dizayner-pedagogning kasbiy faoliyatni amalga oshirish jarayonining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda mazkur jarayonni tizimli tarzda tashkil etish zaruriyati kuchaymoqda. Chunki bo'lajak dizayner-pedagoglar turli obrazlar va qabul qilingan, tasdiqlangan chizmalar asosida ishlaydilar. Shuning uchun ham har qanday vaziyatda ijodkorlikning yetishmasligi, bo'lajak dizaynerning ijodiy-kasbiy faoliyat ko'nikmasiga ega bo'lishini ta'minlashda bo'shliqlar vujudga keladi. Shuning uchun ham oliy pedagogik ta'lim muassasalarida dizayner-pedagoglarni tayyorlash jarayoni to'laqonli tarzda tashkil etilib, turli vositalar va metodlarni qo'llash asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Bunda har bir o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish nazarda tutiladi. Har bir talaba bo'lajak dizaynerni tayyorlash jarayonida asosiy o'quv vazifalarini bajarishga safarbar etiladi.

## REFERENCES

1. Edward de Bono. *Serious Creativity: Using the Power of Lateral Thinking to Create New Ideas*. HarperBusiness, 1992. – 338 p.
2. *Pedagogika: entsiklopediya*. III jild / tuzuvchilar: Jamoa. – Toshkent: «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017 – 400
3. *Креативная педагогика: методология, теория, практика* / под ред. Ю. Г. Круглова. М.: МГОПУ им. М. А. Шолохова: Альфа, 2002, 240 с.
4. *Актуальные проблемы дизайна и дизайн-образования: материалы III Междунар. науч.-практ. конф., Минск, 18–19 апр. 2019 г.* / Белорус. гос. ун-т ; редкол.: О. А. Воробьева (отв. ред.) [и др.]. – Минск: БГУ, 2019. – 391 с
5. Голубева М.В. Креативность – что это такое. Упражнения для развития креативности // <https://psychologist.tips/3342-kreativnost-cto-eto-takoe-uprazhneniya-dlya-razvitiya-kreativnosti.html>

6. Dzhuraev R. K., Karakhanova L. M. Model of the organization of research activities of 10th grade students in teaching physics and biology //International journal of discourse on Innovation, integration and education. – 2021. - Jild 2. – №. 01. – P.296-300.
7. Мусахоновна Қ. Л. УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА БИОЛОГИЯ ФАНИДАН САМАРАДОРЛИККА ЭРИШИШДА ЭЛЕКТРОН ТАЪЛИМИЙ ВОСИТАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АСОСЛАРИ //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. В3. – С. 577-585.
8. Juraev R. X., QORAXANOVA L. M. fizika va biologiyani o'qitishda 10-sinf o'quvchilarining tadqiqot faoliyatini tashkil etish modeli // innovatsiya, integratsiya va ta'lim bo'yicha xalqaro discourse jurnali. – 2021. - Jild 2. – №. 1. – P.295-299.
9. Karakhonova L. M. Using the electronic educational resources in biology lessons //INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILISOPHY, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY. – 2019. – С. 35-39.
10. Karakhanova L. M. USE OF MEDIERE RESOURCES IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF BIOLOGY IN SCHOOLS //International Scientific Review of the problems of pedagogy and psychology. – 2018. – С. 68-70.
11. Jurayev R. K., Karakhanova L. M. Scientific And Methodical Bases Of The Use Of Electronic Educational Resources In Teaching Biology In General Educational Schools //International Journal of Advanced Science and Technology. – 2020. – Т. 29. – №. 8. – С. 3500-3505.
12. Musokhonovna K. L. ICT-As a means of achieving new educational results in teaching natural disciplines in secondary schools //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 10. – С. 315-321.
13. Juraev R. X., Karaxonova L. M. media ta'limi maktab o'quvchilarining ta'lim sifatini oshirish omili sifatida // hayot davomida ta'lim: barqaror rivojlanish uchun uzluksiz ta'lim. – 2013. - S. 322-323.
14. Караханова Л. М. DEVELOPMENT OF STUDENTS'KNOWLEDGE BASED ON THE USE OF 3D EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE BIOLOGY EDUCATION //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2020. – №. 2. – С. 55-59.
15. Musaxonovna K. L. General secondary schools requirements for the introduction of informed educational resources for the development of natural sciences //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 5. – С. 855-860.
16. Juraev R. X., Karaxonova L. M. iqtidorli bolalarni ta'lim muassasalari tomonidan pedagogik qo'llab-quvvatlash //fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2022. - Jild 3. – №. 4. - 66-70 betlar.
17. Karaxonova L. M. tabiiy fanlarni o'qitishda zamonaviy ochiq ta'limda yangi interaktiv elektron manbalar // ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar. – 2021. - Jild 2. – №. CSPI conference 1. - P. 1303-1305.
18. Karaxonova L. M. Development of students' knowledge based on the use of 3d educational technologies in the Biology education //Таълим ва инновацион тадқиқотлар.- Вухоро. – 2020. - 55-59 betlar.

19. Сафарова Р. Г. и др. Ўқувчи-ёшларни оммавий маданият хуружларидан химоя қилишнинг назарий-методологик асослари. – 2017.
20. Kharaxonova L. M. SPECIFIC ASPECTS OF MEDIA EDUCATION AND ITS USE IN HIGH SCHOOLS //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. CSPI conference 3. – С. 278-284.
21. Musakhonovna K. L. Peculiarities of using modern educational tools to increase the effectiveness of teaching the natural sciences and direct students to independent activities //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – Т. 11. – №. 5. – С. 182-191.
22. Kh D. R., Karakhonova L. M. Media education as a factor of increasing the quality of teaching schoolchildren //Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. – 2013. – Т. 11. – №. 2 (eng). – С. 287-288.
23. Караханова Л. МУЛЬТИМЕДИЙНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ ЗООЛОГИИ //Збірник наукових праць Уманського державного педагогічного університету. – 2011. – №. 1.